

SHARTNOMA № 118/6

(Byudjetdan mablag' oluvchi muassasalarni dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash haqida)

"24" 01 2022 yil.

Farg'ona shahri.

Ushbu shartnoma bir tomondan "FARG'ONA DORI -DARMON" aksiyadorlik jamiyati nomidan boshqaruv raisi M.A.Tursunov vakilligida kelgusida "Ijrochi" va ikkinchi tomondan

Rishton tuman kibbiyot birlashmasi vakilligida kelgusida boshlig'i A.T. Usmonov

"Buyurtmachi" o'rtasida har ikki tomonning amaldagi "Nizom"lari va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy -huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

I. Shartnoma predmeti.

1.1 "Ijrochi" "Buyurtmachi"ga ushbu shartnomaga asosan umumiy qiymati 532519,2 (Besh yuz o'ttiz ikki ming besh yuz on taggiz) so'm so'm (summa raqam va so'z bilan yoziladi)

bo'lgan dori vositalari hamda tibbiy buyumlar (kelgusida "Tovar" deb nomlanadi) ni spesifikasiyaga asosan bir marotabalik yoki yillik talabnoma asosida yetkazib beradi.

1.2. "Ijrochi" esa o'z navbatida ushbu "Tovar" lar uchun kelishilgan haqni shartnomaning 2 -bo'limida belgilangan shartlar asosida "Buyurtmachi" ga to'laydi.

II. To'lov tartibi.

2.1. "Buyurtmachi" shartnoma imzolanganidan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan "Tovar" umumiy qiymatining 30 % ni oldindan 159755,76 so'm miqdorda "Ijrochi" ning hisob -raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan to'laydi. Yetkazib berilgan "Tovar" lar to'lovining qolgan, ya'ni 70 % qismi esa "Buyurtmachi" tomonidan "Tovar" qabul qilib olingandan so'ng 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida to'liq to'lab beriladi.

III. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

3.1. "Ijrochi" ning huquq va majburiyatlari:

3.1.1. "Buyurtmachi" tomonidan "Tovar" umumiy narxining 30 foizi "Ijrochi" ning hisob raqamiga oldindan to'langandan so'ng "Ijrochi" "Buyurtmachi" ni "Tovar" bilan ta'minlaydi.

3.1.2. "Ijrochi" "Buyurtmachi" ga tegishli hujjatlar asosida "Tovar"ni belgilangan tartibda hamda belgilangan standart sifat darajasida topshirish majburiyatini oladi.

3.1.3. "Ijrochi" "Buyurtmachi" ga qulaylik yaratish maqsadida "Tovar"ni o'z transport vositalarida "Iste'molchi" ning manzilgohiga yetkazib berishi mumkin. Bu holda transport vositasi orqali yetkazib berish harajati "Ijrochi" tomonidan qoplanadi.

3.1.4. "Ijrochi" ning transport vositasida yetkazilgan "Tovar" ning miqdoridan aniqlangan kamomad hamda sifatsizliklar yuzasidan "Buyurtmachi" "Ijrochi"ning vakili ishtirokida "Tovar" yetkazilgan kundayoq dalolatnoma tuzib holatni tasdiqlaydi. Mazkur dalolatnomaga asosan kamomad hisobi "Ijrochi" tomonidan to'ldiriladi. Agarda ushbu harakatlar o'z vaqtida amalga oshirilmasa e'tiroz asossiz deb hisoblanib, inobatga olinmaydi.

3.1.5. "Ijrochi" So'g'liqni saqlash tizimidagi yuqori tashkilotlar tasdiqlagan markazlashgan taqsimot orqali dori vositalari va muruvvat yordamlaridan kelgan "Tovar"lar bilan "Buyurtmachi"ni ta'minlaydi. Taqsimotni tasdiqlagan tashkilotning ruxsatisiz "Buyurtmachi" "Tovar"ni olishga haqli emas. Transport harajatlari "Buyurtmachi tomonidan qoplanadi.

3.2. "Buyurtmachi"ning huquq va majburiyatlari:

3.2.1. "Ijrochi" "Buyurtmachi" dan shartnoma tuzilgandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan "Tovar" uchun ularning umumiy qiymatining 30 foizini oldindan to'lagandan so'ng 10 kalendar kun ichida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, "Tovar"ni ishonchnoma asosida qabul qilib olish huquqiga ega.

3.2.2. "Buyurtmachi" "Ijrochidan" dan O'zbekiston Respublikasida farmakologik ro'yxatdan o'tkazilib, ishlatishga ruxsat etilgan, sifati, markirovka va o'ramlari amaldagi farmasevtik va texnik talablarga javob beradigan hamda sifat sertifikatiga ega bo'lgan "Tovar"larni talab qilish huquqiga ega. Yetkazib berilgan "Tovar" sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmasa, "Buyurtmachi" "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy -huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 26 -moddasiga muvofiq "Tovar"ni qabul qilishni hamda ularning haqini to'lashni rad etib, "Ijrochi"dan sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmaydigan "Tovar" qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

IV. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari

4.1. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy -huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonuni va boshqa amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

4.2. "Buyurtmachi" tomonidan "Ijrochi"ga berilgan yillik berilgan buyurtmalarni "Buyurtmachi" ushbu shartnomaning umumiy summasidan kelib chiqqan holda to'liq olishi shart. Aks holda "Buyurtmachi"dan

O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy -huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonunining 31 -moddasiga muvofiq olinmay qolgan (olish asossiz rad etilgan) "Tovar" summasing 5 foizi, tez buziladigan "Tovar"lar bo'yicha esa 10 foizi miqdorida jarima undiriladi

4.3. "Ijrochi" tomonidan yetkazib berilgan "Tovar" uchun to'lanishi lozim bo'lgan to'lov haqi "Buyurtmachi" tomonidan o'z vaqtida amalga oshirilmasa, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy -huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonunining 32 -moddasiga muvofiq to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan umumiy summaning 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasing 50% dan ortik bo'lmagan miqdorda "Ijrochi" ga penya to'laydi.

4.4. "Buyurtmachi" tomonidan "Ijrochi"ga yillik berilgan buyurtmalarni yetkazib berishni "Ijrochi" asossiz ravishda kechiktirsa, kechiktirilgan har bir kun uchun "Ijrochi" "Buyurtmachi"ga yetkazib berilmagan "Tovar" umumiy qiymatining 0,5 foizi miqdorida, ammo yetkazib berilmagan tovar umumiy qiymatining 50 % dan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

V. Fors -major x olatlari

5.1. Taraflardan xech biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlar (urushlar, fuqaro lik tartibsizligi, epidemiya holati, blokada, embargo, tabiiy ofatlar) bilan bog'liq holatda bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

VI. Nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Ushbu shartnoma yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Agarda kelishuvga erishilmasa qonunchilikda belgilangan tartibda "Ijrochi" joylashgan joydagi iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

VII. Shartnoma muddati va uni o'zgartirish tartibi

7.1. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar faqat tomonlarning o'zaro yozma kelishuvlari bilan kiritilishi mumkin.

7.2. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.

7.3. Ushbu shartnoma g'aznachi lik bo'limi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab yuridik kuchga kiradi.

7.4. Shartnoma 2022 yil "31" dekabr kuniga qadar amal qiladi.

VIII. Tomonlarning pochta manzili va to'lov rekvizitlari:

"Ijrochi"

«FARG'ONA DORI-DARMON» AJ

Farg'ona sh. Al.Farg'oni ko'chasi 50 uy
X/r 2020 8000 0002 1531 8001
Uzbekiston Respublikasi «TIF Milliy Bank» AJ
Farg'ona viloyat bulimi
MFO 00493 STR 200 153 801
OKOHX 71212
QQS tulovchi :№ 330050016140
Tel./Fax: (73) 244-66-14, 543-21-37

"Buyurtmachi"

Rishton tuman tibbiyot birlashmasi

manzil: Al-Roshidoniy 276 uy
x/r: 100022860302247072110054001
bank: Markaziy bank Toshkent
STIR: 200181854 OKONX 91511
G'aznachilik bo'linmasi nomi:

Rishton

Markaziy bank Toshkent shahar Bosh boshqarmasi XKKM
Yagona g'azna x/v: 23402000300100001010
MFO: 00014 STIR: 201122919
Tel: _____


«FARG'ONA DORI-DARMON» AJ

boshqaruv raisi:

M.A.Tursunov

Rahbar:

A.T. Usmonov
(imzo, muxr, F.I.O.)



Huquqiy xulosa

Mazkur shartnoma loyihalasini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida huquqiy ekspertizadan o'tkazib:

- Shartnoma loyixasining amaldagi qonun hujjatlari talablariga javob berishini va qonunga mos xolda tuzilganligini
- Tomonlarning shartnomada ko'rsatilgan mulkiy javobgarliklari va o'zaro nizolarni hal qilish yo'llari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi hamda "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni asosida belgilanganligini aniqladim

Yuqoridagilarga asoslangan xolda shartnoma loyihalasini qonun hujjatlari asosida tuzilgan deb hisoblayman tomonlarga uni imzolashni tavsiya etaman

«FARG'ONA DORI-DARMON» AJ yuristi

M.Yuldashev

СПЕЦИФИКАЦИЯ ЦЕН.

Приложение к договору

Поставщик: "Фаргона Доря-Дармон" АЖ
 Покупатель: РИШТАН ТУМАН ТИББИЁТ БИРЛАШМАСИ

| №№ | Наименование товаров и услуг. | Производитель | ЕдИзм | Серия | Колво. | Цена | | | Срок годности |
|-----------------------|---------------------------------------|---------------------------|-------|-------|--------|----------|---------|------------------|------------------|
| | | | | | | ОПТ ЦЕНА | НДС | Реализация | |
| 1 | СПИРТ ЭТИЛОВЫЙ (ЭТАНОЛ) "ЛЮКС" 96.62% | КУЖОНСПИРТ ОАЖ Узбекистон | КГ | 720 | 20 | 23153,01 | 3472,95 | 26625,96 | 08.2023 |
| Итого к оплате | | | | | | | | 532519,20 | 532519,20 |

от Поставщика: _____
 подпись

от Покупателя: _____
 подпись

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

№ GE1581877470

1. Loyihaning turi: SHARTNOMA № 118/6

2. Loyihaning nomi:

“FARG’ONA DORI-DARMON” aksiyadorlik jamiyati nomidan boshqaruv raisi M.A.Tursunov va “Rishton tuman Tibbiyot birlashmasi” rahbari A.Usmonovlar o’rtalarida, umumiy qiymati 532519,2 (Besh yuz o’ttiz ikki ming besh yuz o’n to’qqiz) so‘m 20 tiyin bo’lgan dori vositalari va tibbiy buyumlarni etkazib berish yuzasidan 2022 yil yanvar oyida tuzilgan № 118/6-sonli shartnoma

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:

Loyiha Rishton tuman Tibbiyot birlashmasi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o’tkazish uchun 24.01.2022 yilda kiritilgan.

4. Loyiha bo’yicha taklif:


Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o’tkazish natijalariga ko‘ra

XULOSA:

Loyiha O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida” gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.09.2018 yildagi PQ-3953-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 122-moddasi 8-bandi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuristkonsulti



D.Aliboyev